# HAMBURG, GERMANY CONFERENCE-2022 PROCEEDINGS

MAY 4TH-5TH, 2022

A CONFERENCE FOR THE EDUCATORS

# INTERNATIONAL CONFERENCE ON DEVELOPMENTS IN EDUCATION,SCIENCES AND HUMANITIES

- **Education**
- **Social Sciences**
- **Humanities**
- **Medical Sciences**
- **Management**







www.econferencezone.org

E Conference Zone

55. **NITRAT AMMONIY SUYUQLANMASI VA GLAUKONIT QO'SHIMCHASI ASOSIDA BARQARORLASHGAN AMMIAKLI SELITRA OLISH TEXNOLOGIYASI**

Komilov Sanjarbek Mirzakbar o`g`li

206-208

56. **SOME FEATURES OF PSYCHOLOGICAL APPROACH TO SIMULTANEOUS INTERPRETATION**

Tilavova Mukhlisa Makhmudovna

209-211

57. **METHODS FOR DEVELOPING THE PROFESSIONAL COMPETENCE OF STUDENTS IN THE FIELD OF THE LATIN LANGUAGE AND MEDICAL TERMINOLOGY**

Shafoat Shirinqulova

212-213

58. **TOOLS FOR HELPING TO DEVELOP THE LOGICAL SKILLS OF PRIMARY SCHOOL STUDENTS IN THE TEACHING OF GEOMETRIC MATERIALS**

Kamoliddin BADALOV

214-217

59. **VOICE OVER LTE (VOLTE) – SERVICE IMPLEMENTATION & CELL PLANNING PERSPECTIVE**

Tukhanov Javlon Ixmatillaevich, Mirsagdiev Orifjon Alimovich

218-229

# METHODS FOR DEVELOPING THE PROFESSIONAL COMPETENCE OF STUDENTS IN THE FIELD OF THE LATIN LANGUAGE AND MEDICAL TERMINOLOGY

**Shafoat Shirinqulova**
Toshkent tibbiyot akademiyasi O'zbek va xorijiy tillar kafedrasi
katta o'qituvchisi, Toshkent, O'zbekiston

**Annotation**. In this article, it is important to develop methods for the effective use of technologies for the formation of professional competencies in teaching Latin to medical students, developing the skills of accurate translation of medical terms and texts and its compliance with modern educational requirements.

**Keywords**: medicine, terminology, communicative competence, terminological vocabulary, professional role-playing games, imaginative thinking, comparative analysis, pedagogical experience, conversation, pedagogical experiment.

# МЕТОДЫ РАЗВИТИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ СТУДЕНТОВ В ОБЛАСТИ ЛАТИНСКОГО ЯЗЫКА И МЕДИЦИНСКОЙ ТЕРМИНОЛОГИИ

**Аннотация**. В данной статье важно разработать методы эффективного использования технологий формирования профессиональных компетенций при обучении латыни студентов-медиков, развития навыков точного перевода медицинских терминов и текстов и его соответствия современным образовательным требованиям.

**Ключевые слова**: медицина, терминология, коммуникативная компетентность, терминологическая лексика, профессиональные ролевые игры, образное мышление, сравнительный анализ, педагогический опыт, беседа, педагогический эксперимент.

Kirish. Bugungi kunning dolzarb va muhim shartlaridan biri bo'lgan fan rivoji va ishlab chiqarishdagi ulkan o'zgarishlar tufayli kelib chiqayotgan talablar ta'lim sohasi oldiga yangi talablarni qo'ymoqda. Shu bilan birga tibbiy Oliy ta'lim muassasalarida har bir tibbiyot mutaxassisi uchun zarur bo'lgan lotin tili va tibbiy terminologiya faniga ham alohida e'tibor qaratilmoqda. Ana shu jihatdan tibbiy ta'lim yo'nalishlari talabalarda lotin tilini o'rgatish jarayonida kasbiy kompetensiyani shakllantirish texnologiyalaridan samarali foydalanish metodlari, tibbiy atama va matnlarni to'g'ri tarjima qilish malakalarini rivojlantirish va uni zamonaviy ta'lim talablariga mosligini ta'minlash katta ahamiyat kasb etadi.
Yurtboshimiz Sh.Mirziyoyev O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzalarida ta'kidlab o'tganidek, "Ta'lim va tarbiya, ilm-fan, sog'liqni saqlash, madaniyat va san'at, sportni rivojlantirish masalalari, yoshlarimizning chuqur bilimga ega bo'lishi, chet tillarini va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini puxta egallashlarini ta'minlash doimiy ustivor vazifamiz bo'lib qoladi"-deya ta'kidlab o'tgandilar.
Shu sababli bo'lajak tibbiyot mutaxassislarini lotin tilidagi tibbiyotga oid matn va tibbiy atamalarni, tibbiyotga oid mashqlarni tayyorlashning kommunikativ kompetensiyalarni shakllantirish maqsadga muvofiqdir.
Talabalar bilan kasbiy rolli o'yinlar rejalashtirilgan bo'lib, bundan asosiy maqsad talabalarni o'quv jarayonida faollashtirish, lotin tilini o'rganishga nisbatan motivatsiyani shakllantirishdir.
Tadqiqotning maqsadi. Lotin tili va tibbiy terminologiya adabiyotlari va o'quv qo'llanmalari orqali tibbiyot OTM talabalarida kasbiy hamda lingvistik kompetensiyalarni shakllantirish metodikasini yaratilishi, bo'lajak tibbiyot xodimlarining lotin tilida kasbiy kompetensiyasini shakllantirish modelini innovatsion

lingvotexnologik yondashuv asosida ishlab chiqarish; kasbga yo'naltirilgan lotin tilini o'rgatish loyihasini intensiv metodlar vositasida takomollashtirish va tibbiy kontekstni tushunish bilan bog'liq metodik texnologiyalarni joriy etish bo'yicha uslubiy tavsiyalar ishlab chiqish; tibbiyot OTM talabalarining lotin tilida kasbiy kompetensiyasini shakllantirishga qaratilgan tibbiyotga oid lotin-o'zbek, lotin-rus tillaridagi lug'atini ishlab chiqishdan iboratdir.

Lotin tili va tibbiy terminologiya fanini talabalarga o'rgatishda quyidagilar vazifa qilib olingan:

- Tibbiy OTM talabalari uchun berilgan darslik namunalari bilan tanishib chiqish;
- Tibbiyot talabalari uchun chop etilgan lotin tiliga oid adabiyotlarini o'rganib tahlil qilish;
- Tibbiy OTM talabalari uchun chiqarilgan adabiyot va o'quv qo'llanmalarining o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash;

Tibbiyot OTM talabalarining bilimini oshirishdagiIshning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Lotin tili va tibbiy terminologiyaga oid adabiyotlar orqali talabalarda kasbiy kompetensiyalarni tarkib toptirishning ilmiy tamoyillari belgilanadi;

Talabalarda kasbiy kompetensiyalarni tarkib toptirishning samaradorligini oshirishga xizmat qiladigan zamonaviy va samarali usullar ishlab chiqiladi;

Tibbiyotga oid lotin tili adabiyotlari va qo'llanmalaridan foydalanilgan holda talabalarga kasbiy kompetensiyalarni tarkib toptirishning samaradorligini oshirishga xizmat qiladigan amaliy tavsiyalar beriladi va ularning samaradorligi sinovdan o'tkaziladi;

Tibbiy OTM talabalarining lotin tilini bilish darajasini belgilovchi kasbiy va ijtimoiy ko'nikmalarini baholashning samarali mexanizmi nazorat uchun ishlab chiqilgan testlar asosida takomollashtiriladi;

Tibbiy profilaktik ishi ta'limi yo'nalishi talabalarini lotin tiliga o'qitish jarayoniga kasbiy kommunikativ kompetensiyasini shakllantirish va ularni o'qib tushunish va tarjimaga tayyorlashning pedagogik shart sharoitlari sihlab chiqiladi;

Tibbiyotga oid kasbiy kompetensiyani shakllantirishga qaratilgan uslubiy metodlar ishlab chiqiladi.

Maqolada qo'llanilgan yondashuvlar va usullar, uning doirasida foydalanilgan metodologik va nazariy yondashuvlar rasmiy manbalardan olingani, o'rganishlar natijasida keltirilgan tahlillar, hamda tajriba sinov ishlari samaradorligining matematik-statistik metodlar vositasida asoslanganligi, xulosa va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilgani, olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" //Barkamol avlod
2. O'zbekiston taraqqiyotining poydevori.–T.: "Sharq" nashriyot matbaa-konserni. 1997-yil.
3. Azizxo'jaeva N. N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. –T.: O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti. 2006 y. 200 b.
4. Yo'ldosheva J.R. Usmonova S.A., Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy qilish. –T: "Fan va texnologiya" nashriyoti. 2008-yil. 132-bet.
5. Rustamova S.Sh., Saydullayeva M.A.,Abdullayeva R.M. "Lotin tili va tibbiy terminologiya" Darslik RIO TTA 2017 yil 269 b.